

O'QUVCHILARNING KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR

Kenjayeva Sevara Ro'zimboy qizi

Xorazm viloyati Gurlan tumani

15-maktab amaliyotchi psixologi

Gaipova Gulbahor Matiyakubovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

35-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarning kasb tanlashlaridagi yuzaga keladigan asosiy muammolar xususida so'z boradi, otalarning farzandlarining kasb tanlashlarida qiziqishlarini hisobga olmasdan o'z hohishidagi kasbni tavsiya qilishlari xato ekanligini yana bir marotaba ta'kidlaydi

Kalit so'zlar: kasb-hunarga yonaltirish tizimi, qaror loyihasi, o'z-ozini band qilish, imtiyoz, kasb-hunarga yo'naltiruvchi ma'sul xodim

KIRISH

Barchamizga ma'lumki 2020-yilning 15-sentabrda "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezident qarori loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha bo'yicha mamlakatimizdagi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini 7-sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, ularning dastlabki kasbiy tayyorgarligini tashkil etish, yetuk

malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash, yoshlar orasida o'z-o'zini band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirishdan iborat loyiha asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimi joriy etish bayon qilingan

Agarda yangi tizim yaratilsa o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yuzaga kelgan muammolar bartaraf etilardi. Sababi bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari maktab amaliyotchi psixologlari zimmasiga yuklatilganligi bois bu borada mukammal rejali ishlar olib borish qiyin kechmoqda. Bu borada maktablarda olib borilishi lozim bo'lgan ishlar ham anchagina. Agar bu loyiha doirasida maktablarda kasb hunarga yo'naltirish bo'yicha ma'sul shaxs tayinlanib ish olib borsa, yaxshi natija kutish mumkin

Maktab o'quvchilarning barchasi ham fanlarga qiziqib oliy ta'lim olishga ishtiyoqi bo'lavermaydi albatta. Bugungi kunning dolzarb masalasi ham har bir 9-sinf bitiruvchisi oliy ta'limda yo'nalganlari maktabda qolishi yoki akademik litseyda o'qishi, qiziqishi yo'qlarni esa kasb hunar o'rganishga yo'naltirish. Bugungi kunda bu

borada maktabda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda, o'quvchining fanni o'zlashtirishga qiziqishi yo'q, lekin ota-ona farzandining maktabda qolishini hohlaydi. Sabab: yaqin joydan kirib chiqadi, o'rgangan maktabi, ko'zim ostida yurishni hohlayman va boshqalar, bu borada amaliyotchi psixologlar ishlari ham talaygina albatta Kasbga yo'naltiruvchi ma'sul xodim kasbga yo'naltirish bo'yicha 4 tomonlama ota-ona, o'quvchi, kasb o'rgatuvchi (ustoz, tikuvchi, oshpaz) amaliyotchi psixolog hamkorligida ishlasa ancha ishlarni amalga oshirishi mumkin. Ayniqsa amaliyotchi psixolog so'rovnoma natijasiga muvofiq 7-sinf o'quvchilarining qiziqishlari bo'yicha ota-onalarga tushuntirish ishlarini olib borsa, kasb o'rgatuvchining olib borayotgan mashg'ulotlaridan xabardor bo'lsa, o'quvchining kasb bo'yicha olgan bilimlari monitoringi bilan yaqindan tanishib borsalar maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bugungi kunda yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish borasida davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlar anchagina. Jumladan 11-sinfni bitirgan o'quvchilar uchun 3-oylik kurslarning tashkil qilinganligi ham bitiruvchilar uchun imtiyoz bo'lib, kasblar bo'yicha sertifikatga ega bo'lgan yoshlarni markazda faoliyat yuritilayotgan qurilish tashkilotlariga ishga qabul qilinishi quvonarlidir. Agarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha ma'sul xodim tayinlansa maktab amaliyotchi psixologlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritib o'quvchilar qiziqishlari asosida ota-onalar bilan hamkorlikda ishlab farzandlarining qiziqishlarini ota-onalarga tushuntirilsa farzandlariga sharoit yaratib berish (ustozlarga qo'shimcha shug'ullantirish shogirdlikka tushish) zarur kitoblar, o'quv qurollari, kerakli materiallar bilan ta'minlash masalalarini hal qilishi mumkin va maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha oqsab kelayotgan ishlarni yo'lga qo'yishi mumkin.

Ota-ona borki, farzand tarbiyalar ekan, kelgusida o'zining hohishi bo'yicha biror kasb egasi sifatida farzandlarini tasavvur qiladilar, shu asosida farzandini kasbga yo'naltiradilar. Farzandining qiziqishi, xohishini hisobga olmaydilar. Bu masalada ota-onalar albatta maktab psixologi bilan farzandining qiziqishi bo'yicha aloqa o'rnatishi, maslahatlashishi va qaror qabul qilishda ularni hisobga olishlari lozim.

Ota-onalarning farzandlarining kasb tanlashlariga bo'lgan e'tiborini quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin.

1-guruh Farzandlarining kasb tanlashida faol ishtirok etuvchi ota-onalar (59%) kiradi. Bu guruhdagi ota-onalar farzandlarining individual psixik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, xarakteri va sog'ligiga qarab qarab maslahat beradi. Har bir kasbning o'ziga xos talablari, hayotdagi mavqei, ahamiyati haqida ma'lumotlar beradi. Bolalarning ilk yoshidan boshlab mehnat qilishga o'rgatadilar, ularga mehnat ko'nikma va layoqatni hosil qilishga yordam beradilar.

2-guruhga kiruvchi oilalar (28%) farzandlarining kasb tanlashlariga e'tiborsiz ota-onalar. Ular farzandlariga "Qaysi hohlasang o'shani tanla, bu sening hayoting, o'zing bilasan", "Bu sening hayoting", "Sen endi yosh bola emassan" qabilida ish

tutadilar. Oqibatda bola hayot, kasb haqida taassavurlari ham yetarlicha bo'lmaydi, o'z qobiliyatlariga mos kasb topgunlaricha ancha yillar o'tib ketadi yoki ular tayinli biror kasb egalari bo'lmay o'tadilar

3-guruh ota-onalari (13%) avtoritar ota-onalar deyish mumkin. ular farzandlarining hayotiy rejalariga aralashadilar.

Bolaning istaklari, qiziqishlari, imkoniyatlarini hisobga olmaydilar. Ota-ona tomonidan hukm chiqariladi. Barcha rejalar ota-ona tomonidan tuziladi va hal etiladi. Yoki ota-ona bolaning tanlagan kasbining moliyaviy tomonini inobatga olishni uqtiradi. Natijada bola kelajakda tanlagan kasbga xafsalasiz yondashadi yoki tashlab boshqa yo'nalishdan ketadi. Ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan tarbiyaviy usul natijasida hayotdan, tanlagan kasbdan qoniqmaslik hissini keltirib chiqaradi. Boladagi ishtiyoq va havas so'nishi, u qiziqqan ish bilan shug'ullanishni man qilish, ularga nisbatan adolatsizlikning ko'rinishi tarzida namoyon bo'ladi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, harbiro'quvchining yoshlikdan qiziqqan kasbi, mavjud bolib, bu psixologning o'tkazgan metodikalarida test natijalarida ko'rinib turadi. Shunga qarab ota-onalar ham farzandlarining tanlagan sohasini qo'llab-quvatlab turishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko'ra 2025-yildan boshlab maktablarda maktab maslahatchisi lavozimlarining tashkil etilishi ayni muddao boldi. O'quvchilarning o'z vaqtida qiziqishlarini aniqlash, kasb ta'limiga yo'naltirish, oliy ta'limga yo'naltirish ishlarini tizimli tashkil qilish vazifalarini endilikda maktab maslahatchisi olib boradi, bu esa o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olishga yaqindan yordam beradi.

XULOSA

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yoshlarning kelajakdagi hayot yo'lini belgilovchi muhim jarayonlardan biridir. Ushbu jarayonda uchraydigan muammolar, jumladan, kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega emaslik, ota-onalar bosimi, o'z qobiliyatini to'liq anglamaslik hamda ijtimoiy stereotiplar yoshlarning to'g'ri kasb tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktab, oila va jamiyat hamkorligida o'quvchilarning qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish zarurdir. Psixologik xizmatni kuchaytirish, kasbiy diagnostika va targ'ibot ishlarini rivojlantirish orqali yoshlarning ongli va mustaqil kasb tanlashiga erishish mumkin. To'g'ri tanlangan kasb esa shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2020.
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2018.
4. Nishonova Z.T. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2021.
5. To'xtaboyev B. Kasbga yo'naltirish asoslari. – Toshkent, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.